



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY TAFAKKUR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Azizjonova Asilabonu

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15656711>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2025 yil

Ma'qullandi: 07- June 2025 yil

Nashr qilindi: 13- June 2025 yil

KEYWORDS

tanqidiy tafakkur, kognitiv, ijodiy, tahlil qilish, taqqoslash, izohlash, bahslashish.

ABSTRACT

Tanqidiy tafakkur shaxsni fikrlash faoliyati sifatida qaralib, ko'plab ta'lim kontekstlarida o'z-o'zini boshqaradigan, o'z-o'zini tartibga soluvchi, o'zini-o'zi nazorat qiladigan va o'zini-o'zi tuzatuvchi fikrlash hamda g'oya va imkoniyatlarning ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi katta ahamiyat kasb etishi isbotlangan.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ilm-aql, fikrlash tanqidiy tafakkurning mezonini sanalishini o'zlarining asarlarida batafsil yoritganlar. Ibn Sino, Farobiy, Xorazmiy, Beruniy, Navoiyning mustaqil, tanqidiy tafakkurga o'rgatish va ushbu tanqidiy tafakkur jarayonida olingan bilimlar tayyor holda olingan bilimlarga qaraganda afzalroq ekanligini to'g'risidagi ilmiy fikrlari keng talqin qilingan. Tanqidiy fikrlash kognitiv metodlar yoki strategiyalardan foydalanish orqali istalgan yakuniy natijaga erishish ehtimolini oshiradi (D.Xelpern). Tanqidiy tafakkur intellektual qobiliyatlar, shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga olishini R.Polning qarashlarida ko'rish mumkin. Polning fikriga ko'ra, "Tanqidiy tafakkur nafaqat ko'nikmalar yoki texnikalar to'plami, balki dunyoda o'zini anglash usulidir". Psixologiya tafakkurni ruhiy jarayon sifatida, pedagogika esa individning idrok etish va bilishga bo'lgan layoqati sifatida o'rganib, bevosita uning shakllanishi va rivojlanishiga e'tibor qaratilgan. V.Karimova qanday fikrlash? muammosiga diqqatni qaratgan muallif tanqidiy fikrlashning quyidagi xususiyatlarini aniqlagan: fikrlashni ilk yoshdan shakllantirish lozimligi, uning mezonlariga e'tibor berish, har bir narsa va hodisaning o'ziga xos tomonlarini ko'ra olish, ijodiy, tanqidiy yondashuv bo'lsa, o'quvchining tafakkuri ijodiy, egiluvchan, moslashuvchan bo'lib, shular orqali mustaqil tarzda mulohaza yuritish tafakkuriga ega bo'lish. Pedagogikada tafakkur bu inson sezgi organlari hamda aqliy faoliyatining birligi natijasi o'laroq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi fikriy operatsiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir deya ta'riflanadi. Ilmiy-nazariy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagog olimlar tomonidan tanqidiy tafakkur tushunchasiga turli ta'riflar berilgan.

Jumladan: B.X.Xodjayev fikriga ko'ra, "Tanqidiy tafakkur bu odatdagi bilish jarayoni alohidalik va anglashuvchanlik, uzviylik va samaradorlik natijasi" ekanligini ta'kidlaydi. F.O.Xodjiyeva tanqidiy tafakkur tushunchasini bilimni o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning

yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning voqea, hodisa, borliqni obyektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisa deya ta'riflaydi. G.R.Akramova tanqidiy tafakkur bu asosli mulohazalar va qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash, sintez qilish va qo'llashni o'z ichiga olgan tafakkurga intizomli va tizimli yondashuv-deb izohlaydi. Shu o'rinda boshlang'ich ta'limning ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning tafakkurini o'stirish masalalari bo'yicha soha mutaxassisleri R.Safarova, SH.Yusupova, K.Mavlonova, A.G'ulomova, G'.Hamrayevlarning ilmiy-nazariy tadqiqotlariga ko'ra, ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash aniq va tizimli fikr yuritish g'oyalarni ifoda etish uslubini yaxshilaydi va o'quvchining tildan yanada samarali va to'g'ri foydalana olish zarurligini ta'kidlaydilar. Yuqoridagi nazariyalarni inobatga olgan holda, tadqiqotda "Tanqidiy tafakkur" tushunchasining mazmun-mohiyatini ko'rib chiqdik va o'z mualliflik ta'rifimizni keltirdik. Tanqidiy tafakkur kamchiliklarni tanqid qilishni emas, balki muammoni aniqlash va uni hal qilish uchun maqbul strategiyani ishlab chiqish qobiliyatini anglatadi. Ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini baholay oladi va uni talqin qilish, xulosalarni asoslash bo'yicha tahliliy qarashlar tizimini shakllantirishga yordam beradi. Amaldagi ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida taqdim qilinayotgan o'quv materiallari va ular bo'yicha tuzilgan topshiriqlar ko'p hollarda tahlil qilish, taqqoslash, izohlash, bahslashish, yangi muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilmagan, o'quvchilarning fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor berilmagan. Ta'limiy topshiriqlar aksariyat hollarda "yod oling", "o'qing", "gaplarni ko'chiring" va shunga o'xshash tartibda berilgan, vaholanki, o'quvchilarning tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish uchun "u yoki bu muammo bo'yicha fikr bildiring", "u yoki bu obyekt, masalani qiyoslang, taqqoslang", "tahlil qiling", "izohlang" tarzida berilgan topshiriqlar muhimdir. Mazkur yo'nalishdagi tahlillar natijasidan ko'rish mumkinki, boshlang'ich ta'limda rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim muhiti o'quvchilarning ta'lim olishga diqqatini tortish, ta'lim jarayonida "subyekt-subyekt" munosabatlarini qaror toptirish, ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish orqali nazariya va amaliyotning o'zaro integrasiyasini ta'minlash, variativ o'quv dasturlarini yaratish, tanqidiy tafakkur texnologiyasiga asoslangan materiallar, muammoli vaziyat, ijodiy topshiriqlar bilan boyitish orqali o'quvchilarning motivatsiya, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qulay bo'lgan didaktik ta'minot yaratish asosida sifatli ta'lim samaradorligiga erishishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning konseptual asoslarini quyidagi jihatlarini aniqladik.

1. Faol ishtirok etish: O'quvchilarga faqat o'qish yoki eshitish orqali ma'lumotlarni olish emas, balki ularni faol ravishda tahlil qilish va muhokama qilishga undash zarur. Bu guruhli munozaralar yoki muammolarni yechishda ishtirok etishni o'z ichiga oladi.

2. Savol berish va fikr almashish: O'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash va boshqalarga savollar berish imkonini yaratish kerak. Bu ularning fikrlarini yanada chuqurlashtirishga yordam beradi.

3. Dalillarni tahlil qilish: O'quvchilarga ma'lumotlarni faqat qabul qilmaslikni, balki ularni baholash, dalillarni tekshirish va turli fikrlarni solishtirishni o'rgatish kerak.

4. O'zingizni ifodalash va fikrlarni asoslash: O'quvchilarni o'z fikrlarini asoslashga va o'z qarorlarini aniq dalillar bilan himoya qilishga o'rgatish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari o'quv jarayonida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, o'zlarini ifodalash va muammolarni hal qilishda to'g'ri yondashuvlarni o'rgatish bilan bog'liq. Bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun pedagogik va psixologik nazariyalarni hisobga olish zarur, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat bilimlarni emas, balki ularni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini ham rivojlantirishi kerak.

Xulosa. O'quvchilarda tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishda ularning individual xususiyatlariga, yoshiga, emotsional va kognitiv rivojlanishiga qarab turli yondashuvlarni qo'llashni talab etadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar o'quvchilarga faol ishtirok etishga imkon yaratib, ularning fikrlarini asoslash, tahlil qilish va dalillar bilan ta'minlashga yordam berishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminova F.H. O'quvchilarni muloqot matni yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari: Ped.fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 2007. – 174 b.
2. Asqarova M. va bosh. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. –T., 2001.
3. Bekmatova O.A. va boshq. Quvnoq harflar. –T.: O'qituvchi, 2000.
4. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishniig didaktik asoslari. Monografiya – Toshkent – 2005. 144b.
5. Hamroev A.R. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish. Ped. fanl. nom. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 2005. -164 b.

INNOVATIVE
ACADEMY